



## PERIFRAZANING TILSHUNOSLIKDAGI VAZIFALARI VA XUSUSIYATLARI

**Shahnoza Allayorova Primqulovna**

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti II-kurs Magistranti*

**Annotation:** *It is one of the highest tasks assigned by our state to linguists and foreign language teachers to find solutions to the problems faced by students and learners in the process of language learning and to provide them with effective methods. The study of nouns in English and Uzbek by paraphrase is one of the young topics that have not been fully researched yet. Improving the English language skills of students and pupils in Uzbekistan and creating conditions for them to fully understand the language is definitely an urgent problem. How to find and understand the figurative meaning in English and Uzbek languages is important for the learner, because understanding the listener or grasping and understanding the meaning of the text being read is a factor that helps learners master the language well. In essence, paraphrasing is the explanation or explanation of the text in order to gain a better understanding of it. Therefore, the results of this master's research work help students to understand difficult and logical reading materials and to understand the words of a speaker speaking a foreign language.*

**Annotatsiya:** *Tilshunoslarga hamda xorijiy til o'qituvchilariga o'quvchilar va o'rganuvchilar til o'rganish jarayonida duch keladigan muommolarni yechimni toppish va unga samarali uslublar berish davlatimiz tomonida yuklatilgan oliy vazifalaridan biridir. <sup>229</sup> Ingliz va o'zbek tilidagi atoqli otlarning perifraza bilan o'rganilishi hali to'liqligicha tadqiq etilmagan yosh mavzulardan biri hisoblanadi. O'zbekistondagi talaba yoshlarning hamda o'quvchilarning ingliz tilidagi bilimi oshirish hamda ularga tilni to'laqonli tushunish uchun sharoit yaratish albatta dolzarb muommodi. Ingliz va O'zbek tillaridagi tasviriy ma'noni qanday qilib topish va tushunish o'rganuvchi uchun muhim hisoblanadi chunki tinglovchini tushunish yoki o'qilayotgan matnni ma'no mazmunini chaqish va anglab yetish o'rganuvchilarga tilni yaxshi o'zlashtirishga yordam beradigan omil hisoblanadi. Aslini olganda, perifraza matnni yaxshiroq tushunishga erishish uchun uni tushuntirish yoki izohlash hisoblanadi shu sababdan ham ushbu magistrlik ilmiy ishning natijalari o'rganuvchilarga qiyin va mantiqiy bo'lgan o'qish materillarini tushunishga va chet tilida so'zlayotgan so'zlovchini gaplarini anglashga yordam beradi.*

**Kalit so'zlar:** *perifraza, stilistika, tasvirlash orqali tushuntirish, frazeologik nomlash, sinonimik tushuntirish.*

Chet el va mahalliy tilshunos olimlar perifraza tushunchasini o'rganish bo'yicha katta ilmiy izlanishlar olib bordilar. Shubhasiz, perifraza tushunchasi turli xil tavsiflarda turli xil qarashlar va ifodalar bilan beriladi. Misol uchun, bir tilli inglizcha

<sup>229</sup>O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori



“Webster” lug’atida quyidagicha ta’rif berilgan: "... qisqaroq va soddaroq ifoda shakli o'rniga uzunroq iboralardan foydalanish". Aslini olganda, perifraza so'zi yunonchadan olingan bo'lib, “perifrazein” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u "atrof" ma'nosini bildiruvchi "peri-" va "frazein" ma'nosini bildiruvchi so'zlaridan kelib chiqqan. Perifraza - bu mumkin bo'lgan qisqa va sodda so'z o'rniga uzunroq iborani ishlatishni o'z ichiga olgan usul hisoblanadi. Bu nomni o'zgartirish transversal yoki tanish obyektning nomlash uchun ishlatiladigan bilvosita usul deb ataladi. Tilning tabiati nuqtai nazaridan, perifraza ob'ektning nomini o'zgartirishni anglatadi va shuning uchun to'g'ridan-to'g'ri o'rnini bosuvchi umumiy so'z turkumlari bilan birgalikda ko'rib chiqilishi mumkin

Perifraza matn ichida ko'p funksiyalarga ega bo'lib, ular takrorlanish va tushunchaning sinonimik versiyasini ochib beradi. Mashhur tilshunos olim I.P.Galperin perifrazaning vazifalarini obyektlar nominatsiyasi, uning predmeti va boshqa nutqiy iboralar o'rtasidagi munosabatlariga ko'ra ajratadi. Galperin ta'kidlaydiki, perifraz quyidagi funksiyalarga ega

#### 1. Nominativ

“Nominatsiya – til birliklarining ifodalovchi va predmetlar bilan o'zaro bog'lanishini nomlash jarayoni va natijasidir” Nominativ perifraza obyektning uchta usulda nomlaydi

- 1) tasvirlash orqali tushuntirish
- 2) frazeologik nomlash
- 3) sinonimik tushuntirish.

Nominativ funktsiya obyekt va harakat hodisasini aniqlash uchun xizmat qiladi. Boshqa funksiyalar singari, nominativ funktsiya ham ma'lum tarkibiy qismlarga ega, masalan, adabiy matnlarda. Semantik nuqtai nazardan leksik ma'no o'z-o'zidan murakkab semantik belgilarni ifodalaydi. Leksik ma'no ikkiga bo'linadi intensiv va implikativ<sup>230</sup>.

#### 2. Tasviriy

Bu funktsiya perifrazaning tavsiflovchi xarakterini ochib beradi. Bu shuni anglatadiki, ifodalangan iboralar yoki jumalarda perifraza uni tavsiflovchi obyekt xususiyatlarining ba'zi nuqtalarini namoyish etadi. L. V. Grehneva, perifraza obyektlar to'g'risidagi, shuningdek, nominatsiya subyektlari haqidagi ma'lumotlarni o'tkazishi mumkin deb hisoblaydi. Nominativ perifraza ko'pincha muallifning qiziqishlari haqida ma'lumot beradi.

#### 3. Boyitish

Bu vazifa obyektning ham leksik, ham perifraza tomondan ko'rsatishning turli usullari yordamida nutqni boyitish va rang-baranglashtirishni ta'minlaydi.

#### 4. Ekspressiv

#### 5. Muqobil

<sup>230</sup> Yu. E. Cherednichenko.- Astraxan.: Izvestiya VGPU. 2014. - p.96.



6. Hissiy-baholash
7. Uslubni shakllantirish
8. Ko'tarish

I.A. Sidorov perifrazaning funksiyalarini o'rganar ekan, perifrazaning nominativ, ekspressiv, cheklangan uchta funksiyasini ajratishni taklif qiladi. Biroq, bu funksiyalarning soni turli so'zlarning turli xil tomondan tahlil qilish uchun etarli emas. L. V. Grehneva, V. P. Moskvina, M. A. Sirivli asarlari orqali perifraza tushunchasi tushuntirish sifatida ko'rsatilgan, ular ham ma'lumot beruvchi, boyitish va to'plash deb nom berishgan.

Muallif nutqda yoki matnda perifrazalardan foydalanish orqali ba'zi so'zlarni takrorlamaslikni va matnni yangi so'zlar bilan rang-barang qilishni taklif qiladi. Shunday qilib, buyuk yozuvchilar o'z asarlarini stilistik qurilmalar orqali, masalan, perifrazalar orqali boyitishga moyildirlar. Nyu York shahrining mashhur jurnalidan biri bo'lga "Time" jurnalida "Uzun cho'zilgan sariq meva" maqolasi chop etilgan, unda takidlanishicha badiiy muallif uchta so'zni ishlatishni yaxshi ko'radigan inson bo'lgan va bir paytlar "bananan" mevasini "sariq cho'zilgan meva" deb atagan. Bu perifraza Charlz V. Mortonni shunchalik hayratda qoldirdiki, u "Uzun cho'zilgan sariq meva" yozuvi namunalarini to'play boshladi. Namunalar "Nyu-York Herald Tribune"da saqlana boshlandi.

Matndagi izohli perifrazaning asosiy ma'nosi shundan iboratki, ular shaxsga, narsaga va hodisaga keyingi xususiyatlarni beradi (axborotli), muhim belgilarga urg'u beradi (tavsiflovchi), o'zlarida muallifning subyektiv belgilarini (obyektivlik) saqlaydi va takrorlashdan qochish uchun xizmat qiladi.

"Mualliflar perifraza misollarini ataylab va beixtiyor ishlatishlari mumkin. Qasddan bo'lmagan perifraza odatda zaifroq yoki ko'proq havaskor yozish belgisidir"<sup>231</sup> Professional yozuvchilar esa qisqalikka moyil va ularning asosiy maqsadi tinglovchiga ma'lumotlarni yetkazib berish. Biroq, muallif perifraza misolidan ataylab foydalanishni tanlashi mumkin bo'lgan ko'plab sabablar mavjud. Muallif uni dialogda ma'lum bir qahramonning aylanma nutq uslubiga ega ekanligini ko'rsatish uchun foydalanishi mumkin (odatda haddan tashqari xushmuomalalik, beadablik, ikkilanish va shunga o'xshash belgilar). Shoirlar, shuningdek, o'quvchilarni yangicha fikr yuritish uchun allaqachon ma'lum bo'lgan narsani tasvirlashning yangi usulini topish maqsadida perifraza stilistik qurilmasidan foydalanisga moyil. Bunday vaqtda perifraza stilistik qurilmasi metafora yoki o'xshatish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Perifrazalarning asosiy funksiyalaridan tashqari ularning bir qancha xususiyatlari ham mavjud:

### **Haqiqiyli**

Perifrazalarni foydalanishda uning tag ma'nosida yana bir ma'no yashiringan bo'ladi shuning hisobiga bu stilistik qurilma haqiqiyliyini doimo saqlab qolishi keark, shunda tinglovchi yoki o'quvchiga berilgan ma'lumot tushunarsiz bo'linb qolmaydi.

<sup>231</sup> <http://www.literarydevices.com/periphrasis/>



Perifraza barcha muhim g'oyalarni faqat ba'zi qismlardan emas, balki asl manbadan saqlashi kerak. Uning qurilishi barcha asosiy g'oyalar yordamida yakunlanishi kerak.

### **Obyektivlik**

Perifraza shaxsiy fikrlarni o'z ichiga olmaydi, ya'ni yozuvchi yoki muallif o'zining fikrlashi va dunyoqarashiga asoslangan holda, ko'pchilikga noma'lum bo'lgn perifrazani yaratishini uning obyektivligini yo'qotishga olib kelishi mumkin. **Aniqlik**

Perifrazalangan so'z, so'z birikmasi va iboralar o'zlari anglatyotgan ma'noga yaqin bo'lishi va aniqligi bo'lishi zarur.<sup>232</sup>

### **REFERENCES:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 11 avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori
2. Yu. E. Cherednichenko.- Astraxan.: Izvestiya VGPU. 2014. - p.96.
3. <http://www.literarydevices.com/periphrasis/>
4. <https://uz.warbletoncouncil.org/parafrasis-14057>

<sup>232</sup> <https://uz.warbletoncouncil.org/parafrasis-14057>